

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MAVLYANOV SANJAR DJAMBULOVICH

O‘ZBEK TILI DIPLOMATIK TERMINLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Mavlyanov Sanjar Djambulovich O‘zbek tili diplomatik terminlari.....	3
Мавлянов Санжар Джамбулович Дипломатические термины в узбекском языке.....	25
Mavlyanov Sanjar Djambulovich Dipolmatic terms of the Uzbek language	49
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati List of published works Список опубликованных работ	55

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MAVLYANOV SANJAR DJAMBULOVICH

O‘ZBEK TILI DIPLOMATIK TERMINLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2022

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD / Fil.1711 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponenlar:	Sobirov Abdulhay Shukirovich filologiya fanlari doktori, professor Yuldashev Ibrohim Jo'rayevich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2022-yil "30" 12 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (230 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil "15" 12 kuni tarqatildi.
(2022-yil "15" 12 1 -dagi raqamli reestr bayonnomasi)


E.I. Adizova
Ilmiy darajalar beruvchi, ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor
Q.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi, ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent
N.M. Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon terminosistemasida diplomatik terminlar alohida o‘rin tutadi. Zero, jahon hamjamiyatining diplomatik munosabat va diplomatik muloqotga bo‘lgan kuchli ehtiyoji mazkur soha terminologiyasining izchil taraqqiy etishida muhim omil hisoblanadi. Terminologik tizimlar orasida o‘ziga xoslik kasb etuvchi diplomatiya terminlari va diplomatiyaga oid til birliklari jahon tilshunosligida keng o‘rganilgan, diplomatiya tushunchasi turli adabiyotlar, manbalar, umumiy va maxsus lug‘atlarda tavsiflangan. Ammo bugungi dunyoning siyosiy manzarasi diplomatik munosabatlarga oid turli tarixiy va zamonaviy manbalarni lingvistik nuqtai nazardan tilshunoslikdagi eng so‘nggi paradigmalar asosida tadqiq qilish, diplomatik munosabatlar va diplomatik muloqotga oid leksik birliklar har tomonlama ilmiy tahlil qilingan tadqiqot natijalarini xalqaro maydondagi muloqot jarayoniga tatbiq qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Dunyo miqyosida davlatlararo yangi diplomatik munosabatlarning vujudga kelishi, xususan, davlatlarning bir-biri bilan diplomatik munosabati mamlakatimizning tashqi siyosatiga hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalariga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Globallashuv davrida xalqaro aloqalarning ahamiyati oshib, mamlakatlarning har jabhada o‘zaro samarali munosabatlari muhim ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda davlatlar o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkillashtirish jarayonlarini takomillashtirishning o‘rni ortib borayotganligi sababli diplomatiya terminlarining mohiyatini mukammal anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda diplomatiya sohasi mustaqillikdan so‘ng haqiqiy maqomga ega bo‘lib, olib borilayotgan oqilona tashqi siyosat natijasida o‘zbek tilining o‘ziga xos va mos diplomatiya tili shakllandi. Shunga ko‘ra diplomatiya terminologiyasini tadqiq qilish fanimizda yangi ufqlarni ochishi tabiiy. Zotan: “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to‘laqonli qo‘llash bilan bog‘liq”¹ ekan, sohaviy bilimlarni egallashning asosiy manbasi bo‘lgan terminografiyaga, xususan, diplomatiya terminlarini tekshirishga oid tadqiqotlarga ehtiyoj ortib boraveradi. O‘zbek tilshunosligida diplomatiya terminlarining u yoki bu jihatlari kamsonli ayrim tadqiqotlarda tahlil qilingan, ammo ular monografik planda har tomonlama o‘rganilmagan edi. Shunga ko‘ra terminlarning o‘zbek tili leksikasidagi o‘rni, termin tanlash va qo‘llash masalalari, ularni o‘zbek tilida mukammal ifodash, semantik-struktur tuzilishini tadqiq qilish, terminlardagi

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг 30 йиллиги муносабати билан сўзлаган нутқи // uza.uz/uz/posts/prezident-shavkat-mirziyeevning-o'zbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-21-10-2019

variantlilik, ma'nodoshlik, ko'pma'nolilik munosabatlariga oydinlik kiritish va ularni leksikografik talqin qilish kabi muammolarning hal qilinishi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2018-yil 5-apreldagi PQ-3654-son "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 11-martdagi 139-sonli "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Terminning aksariyat zamonaviy ta'riflarida uning tushuncha bilan bog'liqligi ilgari suriladi va bu xususiyat ko'rib chiqilayotgan lingvistik mohiyatni aniqlash uchun eng muhim deb e'tirof etiladi.

O'zbek tili diplomatik terminlarining o'ziga xosligi diplomatiya, diplomatik harakat va diplomatik xizmat sohasidagi faoliyat, diplomatik tilga va o'zbek adabiy tilining rasmiy ish uslubining maxsus diplomatik – quyi uslubiga tegishliligi bilan belgilanadi va shu jihatlardan tadqiq etilgan.

Terminologiyaga oid muammolar jahon tilshunosligida ham atroflicha o'rganilgan. Xususan, D.S.Lotte¹, V.P.Danilenko², T.L.Kandelaki³, V.M.Leychik⁴, B.N.Golovin⁵, R.Y.Kobrin⁶, B.Superanskaya⁷, I.I.Borisenko, L.I.Yevtushenko⁸, V.L.Israelyan⁹ kabi terminshunoslar izlanishlarida mavzuga oid qarashlarni kuzatishimiz mumkin.

¹ Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – М., 1961.

² Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М., 1977.

³ Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – М., 1977.

⁴ Лейчик В.М. Языки для специальных целей – функциональные разновидности современных развитых национальных языков // Общие и частные проблемы функциональных стилей. – М., 1986.

⁵ Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – М., 1987.

⁶ Кобрин Р.Ю. Лингвистическое описание как база концептуального моделирования в информационных системах: Дисс. ... док. филол. наук. – Горький, 1989.

⁷ Суперенская А., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Либроком, 2012.

⁸ Борисенко И.И., Евтушенко Л.И. Английский язык в международных документах. – М: Славянский дом, 2003.

⁹ Исраэлян В.Л. Дипломаты лицом к лицу. – М: Международные отношения, 1990.

O‘zbek tilshunosligida turli soha terminologiyasi tadqiqi S.Ibrohimov, S.Akobirov, S.Usmonov, R.Doniyorov, N.Mamatov, A.Hojjiyev, H.Shamsiddinov, I.Pardayeva, N.Usmonov, A.Sh.Sobirov, I.Yuldashev, Z.Isaqova, G‘.Ismailov, A.To‘raxojayeva, A.Madvaliyev¹, H.Dadaboyev² singari olimlarning ilmiy izlanishlarida ko‘zga tashlanadi. Qayd etish joizki, bu boradagi qarashlar o‘zbek tili leksikasi³ va leksikologiyasi⁴ masalalari tadqiq etilgan darslik va qo‘llanmalarda ham aks etgan.

2021-yilda I.U.Shamsimuhamedov tomonidan “Dipomatik terminlarning izohli lug‘ati” nashr qilindi.⁵

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilining sistemaviy tadqiqi” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi o‘zbek tili diplomatik terminlarining struktur - semantik munosabatlari va xususiyatlari, lug‘atlarda berilishi hamda “O‘zbek tili diplomatiya terminlarining izohli lug‘ati”da aks ettirilish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

¹ Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. I.– Тошкент: Фан, 1956; Акобиров С.Ф. Тил ва терминология. – Тошкент, 1968; Шу муаллиф. Терминология ишининг мазмуни ва вазибалари хақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1964. – № 3. – Б. 31-38; Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977; Шу муаллиф. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1979; Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи. Автореф. дисс... канд. филол. наук. –Ташкент, 1984; Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Маматов Н. Ўзбек пахтачилик терминологияси. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1995; Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари //Ахборот. 11–12-чиқарув. – Тошкент: Фан, 1996; Собиров А.Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004; Юлдашев И. Ўзбек тили китобатчилик терминологияси. -Тошкент: Фан, 2005; Исақова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридagi ижтимоий-сиёсий лексика. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2010; Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Тўрахожаева А. Мустакиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2012; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.

² Дадабаев Х. Старотюркская дипломатическая терминология в XI-XIV вв. // Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 4-13; Шу муаллиф. Огаҳий тарихий асарларидаги дипломатияга оид терминлар // “Лингвист” илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2017. – Б 4-8; Шу муаллиф. Темурийлар салтанати ва Хитой императорлиги орасидаги дипломатик алоқаларнинг шаклланиши // “O‘zbekiston-Xitoy: Tarixiy-madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar rivoji”mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 17.11.2018. – Тошкент, 2018. – Б 170-173.

³ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.

⁴ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981.

⁵ Shamsimuhamedov I. Diplomatik terminlar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2021. – 224 b.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tili diplomatik terminlarining leksik tizimdagi o‘rnini ochib berish, semantik taraqqiyotini yoritish, semantik tasnifini amalga oshirish, semantik munosabatlarini aniqlash;

o‘zbek diplomatiyasi xususiyatlari yoritilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarda keltirilgan diplomatik terminlarning izohini aniqlash;

hozirgi o‘zbek tili diplomatik terminlarining struktur xususiyatlarini aniqlash va mavjud terminlarning qurilish jihatlarini solishtirish, unumdor qoliplari va yasaliş imkoniyatlarini tekshirish;

o‘zbek tili diplomatik terminlarining “O‘zbek tili diplomatiya terminlarining izohli lug‘ati”da aks ettirilish imkoniyatlarini aniqlash;

o‘zbek tili diplomatik terminlarining o‘zbek diplomatiyasida foydalaniluvchi maxsus (diplomatik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy) ensiklopediyalar, o‘zbek tilining izohli va etimologik lug‘atlarida berilish xususiyatlarini tahlil qilish, tavsiflash;

zamonaviy diplomatik nutqda qo‘llanuvchi terminlarning foydalanilish imkoniyatlarini baholash.

Tadqiqotning obyektini o‘zbek diplomatiyasida foydalaniluvchi maxsus (diplomatik, siyosiy, huquqiy) lug‘atlar va ensiklopediyalar, o‘zbek tilining izohli va etimologik lug‘atlari, o‘zbek diplomatiyasi xususiyatlari yoritilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarda, “O‘zbek tili diplomatiya terminlarining izohli lug‘ati”da keltirilgan terminlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini hozirgi o‘zbek tilidagi diplomatik terminlarining semantik - struktur xususiyatlari va imkoniyatlari, leksikografik tavsiflarini yoritish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasniflash, tavsiflash, qiyosiy tahlil, sistem-struktur, komponent tahlil, statistik hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda diplomatik faoliyatning shakllanishi o‘zbek diplomatiya tilining vujudga kelishiga zamin yaratganligi, diplomatik faoliyat, konsullik xizmatlari, xalqaro aloqalarda o‘zbek tilining rasmiy quyi uslubi sifatida qo‘llanila boshlaganligi, o‘zbek adabiy tilining diplomatik uslubi sifatida namoyon bo‘la boshlaganligi dalillangan;

zamonaviy o‘zbek tili diplomatik terminlarining struktur xususiyatlari, unumdor qoliplari, yasaliş imkoniyatlari ochib berilib, o‘zbek tili diplomatik terminlari tarkibida tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, gibrid, juft, birikmali, qisqartma terminlar mavjudligi aniqlangan;

o‘zbek tili diplomatik terminlarining semantik taraqqiyoti aniqlanib, o‘zbek tili diplomatik terminlarining o‘zbek diplomatiyasida foydalaniluvchi maxsus (diplomatik, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy) ensiklopediyalar, o‘zbek tilining izohli va etimologik lug‘atlarida berilish xususiyatlari ochib berilgan;

o‘zbek diplomatik terminlarining izohli lug‘atlarini tuzish, diplomatik terminlarning semantik turlari, diplomatiyada qo‘llanuvchi har bir terminning ma’no doirasi aniqlanib, diplomatiya tili, uning terminologiyasi va semantik

turlarining takomillashuvi natijasida xalqaro munosabatlarda lingvistik, semantik, terminologik jihatlarini ochishga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“O‘zbek tili diplomatiya terminlari izohli lug‘ati”ni tuzish tamoyillari ishlab chiqilgan;

diplomatiya, konsullik va xalqaro huquq sohalaridagi terminlar semantik tavsiflangan va mazmun-mundariyasi ochib berilgan;

o‘zbek tilida diplomatik terminlarning tarjimasi, o‘zlashtirilishi, izohlanishi va berilishini yoritishda sohaga oid lug‘atlarning amaliy ahamiyati asoslangan;

konsullik idoralari, Tashqi ishlar vazirligi, elchixonalar, diplomatik korpus vakillari faoliyati va bu jarayonlarda tarjima ishlarini yuritishda tuzilajak “O‘zbek tili diplomatiya terminlari izohli lug‘ati”ning ahamiyati dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek adabiy tili tabiati va o‘zbek diplomatiya terminlari imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosiligi, metodologik mukammalligi, qo‘yilgan masalalarning aniqligi, o‘zbek diplomatiya terminlarining struktur, semantik munosabatlarini ko‘rsatishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek diplomatiya terminlarining struktur xususiyatlarini aniqlash, “O‘zbek tili diplomatiya terminlari izohli lug‘ati”ni yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, diplomatiya, konsullik va xalqaro huquq sohalaridagi terminlarning izohini berish, diplomatiya terminlariga oid tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek diplomatiya terminlarining struktur xususiyatlarini tavsiflash, “O‘zbek tili diplomatiya terminlari izohli lug‘ati”, “O‘zbek diplomatiya terminlarining ikki va ko‘p tilli tarjima lug‘ati”, “O‘zbek diplomatiya terminlarining ideografik lug‘ati”, “O‘zbek diplomatiya terminlarining tezaurus lug‘ati”, “O‘zbek diplomatiya terminlarining cho‘ntak lug‘ati”, “O‘zbek diplomatiya terminlarining o‘quv lug‘ati”ni yaratish, diplomatiya, konsullik va xalqaro huquq sohalaridagi terminlarning izohini berish, o‘zbek tilida baynalmilal diplomatik terminlarning tarjimasi, modeli, o‘zlashtirilishi va izohini aniqlashtirish, konsullik idoralari, elchixonalar va diplomatik korpus vakillari faoliyatida tarjima ishlarini yuritish, diplomatiyaga oid fanlarning o‘quv dasturini tuzish va fanni o‘qitishda manba vazifasini o‘tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tili diplomatik terminlari tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

diplomatiya tili va uning terminologik tarkibini ochib berishda; diplomatik faoliyat turlari va diplomatiyaning huquqiy asoslarini ifodalovchi birliklar, o‘zbek tilidagi diplomatik terminlarning semantikasi va strukturasi, diplomatiya tushunchasining leksikografik talqinlari, o‘zbek tili diplomatik terminlarining semantik munosabatlari, taraqqiyoti, tasnifiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli “O‘zbek tilida neyning: me‘yoriy-huquqiy asoslarini

yaratish” (2019-2022) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 1-apreldagi №04/1-573-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tayyorlangan lug‘at tarkibining xalqaro huquq, konsullik va diplomatiyaga oid birliklar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

diplomatiyada inson xulq-atvori va u bilan bog‘lik birliklar; diplomatik faoliyatda odob-axloq me’yorlarining xalqaro me’yorlar asosida ifodalanishi va qo‘llanishi; o‘zbek tili diplomatik terminlari tarkibidagi inson xulq-atvori, odob-axloqi bilan bog‘liq leksimalarning ma’no taraqqiyoti va munosabatlariga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan I-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe’l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” (2019-2021) mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 1-apreldagi №04/1-574-sonli ma’lumotnomasi). Natijada diplomatiyada inson xulq-atvorini ifodalovchi, diplomatik faoliyatda odob-axloq me’yorlarining xalqaro normalardagi nomlanishi bilan bog‘liq so‘zlar lug‘at qiymatining oshishiga asos bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari, yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, obyekt va predmeti, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tilshunoslikda diplomatik terminlar tadqiqi. O‘zbek tili diplomatik terminlarining leksik sistemadagi o‘rni”** deb nomlangan.

Zamonaviy tilshunoslikda ko‘plab tadqiqotlar yuzaga kelganligiga qaramay, termin ta’rifi muammosi munozarali bo‘lib qolmoqda. Qayd etish joizki, qator fundamental ishlar terminning muhim xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan,

ammo hozirgacha lingvistik adabiyotlarda terminning universal va mukammal ta'rifi yaratilmagan¹.

Tilshunoslikda ma'lum tushunchalarni ifodalovchi umumiy va maxsus terminlar, termin va atama borasidagi qarashlar olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Terminga qo'yiladigan talablar, uning xususiyatlari, undagi ko'p ma'nolilikni ifodalash jihatlari, terminologik birliklarda sinonim va antonimlarning mavjudligi, so'z birikmalari, shuningdek, turli so'zlar bilan ifodalanishi A.B.Superanskaya, N.Z.Kotelova, J.A.Kapanadze, V.P.Danilenko, B.N.Golovin kabi tadqiqotchilar izlanishlarida e'tirof etilgan. Ammo yuqoridagi masalalar yuzasidan tilshunoslikda yaxlit xulosaga kelinmagan, olimlarning qarashlarida farqliliklar ko'zga tashlanadi. Leksikologiya bo'yicha ba'zi zamonaviy tadqiqotlarda ham so'zni termin yoki termin bo'lmagan birliklarga nisbatlash uchun aniq farqlash mavjud emas. Chunki "ba'zi hududlarning leksik birliklarida terminologik va umumiy so'zlardan foydalanish o'rtasida aniq chegara mavjud emas"². Shu o'rinda qayd etish joizki, "terminologiya adabiy tilning quyi tizimi sifatida qaraladi, ya'ni atamashunoslik umumiy adabiy til doirasida, lekin mustaqil "sektor" hisoblanadi. Terminologiyaning bu "ma'muriy-hududiy" pozitsiyasi, bir tomondan, umumiy adabiy til taraqqiyotidagi tendensiyalarning majburiylikini, ikkinchi tomondan, terminshunoslik taraqqiyotida ma'lum bir erkinlik, mustaqillik va o'ziga xos xususiyatni belgilaydi. Adabiy til rivojiga ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi"³.

Diplomatiyaga oid turli ilmiy adabiyotlarni o'rganish va lingvistik materiallarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilining diplomatik terminlarining o'ziga xosligi ikki holat bilan izohlanishi mumkin:

- 1) diplomatiya diplomatik harakat va diplomatik xizmat sohasidagi faoliyat;
- 2) diplomatik tilga va o'zbek adabiy til rasmiy ish uslubining maxsus diplomatik – quyi uslubiga tegishliligi.

Demak, nomlangan hodisalarning o'ziga xos jihatlari belgilamasdan turib, o'rganilayotgan terminning xususiyatlarini aniqlash mumkin emas.

Ta'kidlash joizki, diplomatik soha va diplomatik xizmat davlat xizmatining bir turi sifatida qaraladi. Shu boisdan diplomatik terminlar faqat diplomatiya va diplomatik faoliyat sohasida ishlaydi.

Diplomatiya tushunchasining o'zbek tili manbalaridagi ta'riflariga e'tibor qaratsak, ular da diplomatiya tushunchasining mazmun plani bayon qilingan, ammo to'liq mohiyati keltirilmagan. O'zbek tilining ikki jildlik izohli lug'atida *diplomatiya* termini quyidagicha tavsiflangan: "Diplomatiya – davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi

¹Володина М.Н. Когнитивно-информационная природа термина (на материале терминологии средств массовой информации). – М.: Изд-во Моск. гос. ун-та, 2000. – С. 18.

²Крючкова Б.Т. Особенности формирования общественно-политической лексики и терминологии. – М.: Наука, 1989. – 151 с.; Заварзина Г.А. Государственное управление: актуальная лексика-русского языка начала XXI века. Словарь-справочник. – Воронеж: ВГПУ, 2012. – 236 с.

³Даниленко В.П. Лексико-семантические и грамматические особенности слов-терминов // Исследования по русской терминологии. – М., 1971. – С.11; Даниленко В.П. О месте научной терминологии в лексической системе языка // Вопросы языкознания. – 1986. – № 4. – С. 9.

faoliyati”¹. O‘zbek tilining besh jildlik izohli lug‘atida ham ushbu izoh bilan aynan: “Diplomatiya – davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati”². Ushbu tushunchani ifodalashda o‘zbek tilshunosligida diplomatik terminologiya yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur ikki lug‘atga asoslanadi³.

“Tashqi ishlar vazirligi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, vazirlik to‘g‘risidagi Nizomga amal qilish”⁴ belgilab qo‘yilgan bo‘lib, respublikada qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, “Vazirlik o‘z faoliyatini xalqaro huquq me‘yorlaridan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tuzgan shartnomalar va bitimlarga muvofiq qurish”i vazirlik me‘yoriy hujjatlarida ta’kidlangan.

Hozirgi kunda davlatning tashqi ishlari yuqorida keltirilgan qonun hujjatlarida belgilangan me‘yorlar asosida tashkillashtirilib, jahonning deyarli barcha mustaqil davlatlari bilan mamlakatning tashqi aloqalari muvaffaqiyatli o‘rnatilmoqda. Aytish mumkinki, Respublikamizda diplomatik faoliyat samarali yo‘lga qo‘yilgan va o‘z oldiga qo‘ygan maqsad, vazifalarini samarali o‘tab kelmoqda.

“Diplomatik til” o‘zbek adabiy tilining diplomatik quyi uslubining umumiy xususiyatlariga xos ko‘rinishidir.

Diplomatik til bu:

1. Rasmiy diplomatik munosabatlar amalga oshiriladigan va diplomatik hujjatlar rasmiylashtiriladigan til.

2. Umumiy qabul qilingan diplomatik lug‘atga kiritilgan termin va iboralar majmui.

Yuqorida keltirilgan ma’nolarning birinchisi “o‘zbek adabiy tilining diplomatik quyi uslubi” lingvistik tushunchasiga, keyingisi esa “o‘zbek tilining diplomatik lug‘ati” (“diplomatik leksika”) tushunchasiga mos keladi.

Hozirgi kunda o‘zbek tili diplomatik terminlarining tom ma’nodagi izohli lug‘ati mavjud emas. Ammo ayrim olimlar tomonidan diplomatiya terminlari lug‘atlari shakllantirilgan. Jumladan, I.U.Shamsimuxamedovning “Diplomatik terminlar izohli lug‘ati”⁵da diplomatiya, konsullik xizmatlariga oid terminlardan 400 ga yaqini izohlangan. Bizningcha, o‘zbek tili diplomatik terminlarining izohli lug‘atining o‘zagini:

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. З.Мағруфов таҳрири остида – М: Русский язык, 1981. – Б. 228.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 624.

³ Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б. 9.; Арипова А. Нотиқлик нутқининг лисоний-услубий воситалари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002. –186 б.; Тўрахўжаева А. “Дипломатия” архисемали лексемаларнинг семантик таҳлили // «Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари» Республика илмий ва амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2010. – Б. 75.

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-3611284?ONDATE=01.02.2019>

⁵ Shamsimuhamedov I. Diplomantik terminlar izohli lug‘ati. – Toshkent, 2021.

- 1) diplomatik terminologiya;
- 2) diplomatik va konsullik huquqi terminologiyasi;
- 3) xalqaro huquq terminlari tashkil etishi lozim.

Yuqorida ta'kidlangan diplomatik lug'at va terminologiyaning xususiyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, diplomatik leksika o'zbek tilining o'ziga xos quyi tizimi bo'lib, o'zbek adabiy tilining boshqa funksional turlariga xos bo'lgan tegishli quyi tizimlardan sezilarli darajada farq qiladi. Diplomatik terminlar o'zbek tili diplomatik leksikasida katta ahamiyat kasb etib, o'ziga xos vazifalarni ifodalaydi. Ularning uslubiy ahamiyati diplomatik quyi uslub tizimida mavjudligi, diplomatik aloqa sohasida va diplomatik nutqda doimiy ishlatilishi bilan izohlanadi.

Ushbu tadqiqot obyekti bo'lgan diplomatik terminlarni mavzuiy guruhlariga ajratish, har bir mavzuiy guruhning tabiatini ochib berish *diplomatiya*, *konsullik*, *tashqi aloqa* semalari asosida birlashuvchi terminlarning mohiyatini chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi. Soha terminlarining ma'no tabiati, funksional xususiyatlarini aniqlashda mavzuiy guruhlariga ajratib tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarda ifodalangan qarashlar esa *diplomatiya* tushunchasining mohiyatini to'liq ochishga xizmat qilgan. Havola berilgan manbalar bilan birga quyida ayrim tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan qarashlarni keltirishni joiz deb bildik: I.I.Borisenko va L.I.Yevtushenkolarga ko'ra: "Diplomatiya – xalqaro aloqalarni o'rnatish san'ati va tajribasi, tashqi ishlarni olib borishda aql va uslubdir"¹. Rus tilshunosligida olib borilgan diplomatiyaga oid tadqiqotlarning fransuz, ingliz, nemis tillardagi mavjud manbalarga tayanilganligini kuzatish mumkin. Bunda V.L.Israelyanning tadqiqoti e'tiborlidir Tadqiqotchi "diplomatiya"ning izohi bo'yicha o'ndan ortiq jahon tilshunoslari va siyosatchi olimlarining fikrlarini o'rgangan va muhim xulosalarni berishga harakat qilgan².

Tilshunoslikda diplomatik terminlar tadqiqi yuzasidan Naser Falix Moxsin³, X.A.Saidov⁴, Moxamad Sharaf El'din Abdel'bari Axmed⁵, A.I.Pencheva⁶ O.G.Ostapenko⁷, N.S.Nazarova⁸, Xa Nargiza⁹kabi filolog olimlar hamda

¹ Борисенко И.И., Евтушенко Л.И. Английский язык в международных документах. – М: Славянский дом, 2003. – С. 472.

² Израэлян В.Л. Дипломаты лицом к лицу. – М: Международные отношения, 1990. – С. 13.

³ Насер Ф.М. Дипломатическая терминология русского языка и ее семантизация в учебном двуязычном словаре. Дисс...канд. филол. наук. – Воронеж, 2013. – 197 с.

⁴ Саидов Х.А. Дипломатическая терминология в таджикском и английском языках. Дисс...д-ра филол. наук. – Душанбе, 2013. – 366 с.: ил. РГБ ОД, 71 14-10/49

⁵ Мохаммад Шараф Эль дин Абдельбари Ахмед. Язык русской дипломатии в арабском восприятии. Дисс...канд. филол. наук. – М., 2007. – 155 с.: ил. РГБ ОД, 61 07-10/2049

⁶ Пенчева А.И. Типы межъязыковой эквивалентности в текстах дипломатических документов на русском и болгарском языках. Дисс... канд. филол. наук. – Душанбе, 2014. - 289 с.

⁷ Остапенко О.Г. Сравнительно-сопоставительный анализ дипломатической и административной терминологической лексики (на основе документов дипломатических контактов России и Англии XVI–XVII веков). Дисс...канд.филол. наук. – М., 2015. – 160 с.

⁸ Назарова Н. С. Структурно-семантический анализ терминов международного права в английском и таджикском языках. Дисс...канд. филол. наук. – М., 2013. – 154 с.

⁹ Ха Наргиза. Дипломатик нутқ лексикаси. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори диссер. – Т., 2022. – 139 б.

I.S.Igdavletov¹, Z.A.Chomayev² singari tarixchi va K.Y.Fedotova³ singari siyosatchilarning tadqiqotlarida mavzuga oid fikrlarni kuzatish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek tilidagi diplomatik terminlarning semantik tahlili”** deb nomlanib, o‘zbek tili diplomatik terminlarining semantik taraqqiyoti, ularning semantik tasnifi va semantik munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Tillar taraqqiyotining o‘zgarish dinamikasi, albatta, leksik qatlamda sezilarli darajada aks etib, leksemalar kishilar nutqida qo‘llanib, ijtimoiy munosabatlarda voqelanadi. Leksemalarning o‘zlashishi ayniqsa, ma’lum bir sohalar va yo‘nalishlar termin tizimida yuz berib, mazkur jabhadagi muayyan tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi hamda jamiyat hayotida shu tushunchani anglashga xizmat qiluvchi vosita sifatida nutqda voqelanadi, kishilar ongida shu kategoriya bilan o‘rnashadi. Shu bilan birga, taraqqiyotda bo‘lgan tilning leksik qatlamida mavjud bo‘lgan leksik birliklarning semantik maydonida ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berib, leksemaning semantik maydoni kengayishi yuz berishi mumkin. Bu esa muayyan leksemaning kishilar ongida yana bir mazmunni ifodalashi uchun imkon yaratadi. Umuman, har qanday tilning leksik qatlamidagi leksemalar jamiyat munosabatlariga bog‘liq ravishda o‘z ma’no doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin. Shu bilan birga, rivojlanishda bo‘lgan til leksik birliklar hisobiga ham boyib boradi. Shu o‘rinda tildagi ma’lum leksemalar semantik mohiyatini o‘zgartirib turishi, jamiyat hayotiga bog‘liq holda qo‘llanishdan chiqib ketishi mumkin. Tilning leksik boyligi, leksemalarning ma’no taraqqiyoti tilning rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi omillardan biri ekanligi yuqorida ta’kidlandi. Jamiyat taraqqiy etar ekan uning tarkibida yangi yo‘nalishlar, sohalar ham yuzaga keladi. Bu holat esa tilning leksik qatlamida ham o‘zgarish, o‘sish ro‘y berishiga olib keladi.

O‘zbek tilidagi diplomatik terminlarni genetik-etimologik jihatdan ikki yirik guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1. O‘z qatlam: *vakillik, buzilish, kelishuv, hamkorlik, vositachilik, sheriklik, qo‘shilish, birlashtirish, qarama-qarshilik, bo‘ysunmaslik, maslahatchi, tashqi savdo, xushmuomalalik, qo‘zg‘olon, undamoq, qochoq, o‘tkazish, chegara, yetakchilik, zabt etmoq, tartib, jilovlash, bosqinchilik, ittifoqchi, do‘stona bo‘lmagan, elchi, bitim va h.k.*

2. O‘zlashgan qatlam: *diplomatiya, diplomatik, strategik, deklaratsiya, konventsiya, memorandum, strateg, konferensiya yoki kongress, sammit, tranzit, operatsiya, taktika, razvedka, agent, delegatsiya, status, immigrant, sanktsiya, avtoritar tuzum, avtonom, suverenitet, imperializm, respublika, protokol, bargon, diskriminatsiya (kamsitish), nota, pakt, attashe, ekstraditsiya, diplomatik immunitet, diplomatik korpus, genotsid, arbitraj, deportatsiya, dissident, missiya, skrining, diplomat, manuver, persona nongrata, konsul, deportatsiya, viza,*

¹ Игдавлетов И.С. Торговая и дипломатическая деятельность российских мусульман Урало-Поволжья в XVIII в. Автореф. дисс...канд. истор. наук. – Уфа, 2013. – 196 с.

² Чомаев З.А. Мусульманская дипломатия в раннеисламскую эпоху: зарождение и особенности функционирования (622-661 гг.). Дисс...канд. истор. наук. – М., 2021. – 247 с.

³ Федотова К.Е. Культурные аспекты внешней политики Российской Федерации (на примере сотрудничества с ЮНЕСКО). Дисс...канд. полит. наук. – М., 2017. – 160 с.

ultimatum, kolonizatsiya, protektorat. ilova, qaror, ishonchnoma nazorat, vakil, tashabbus, shartnoma, va h.k.

Shuningdek, o‘zlashgan qatlamni semantik mundarijasiga asoslanib, ikki guruhga ajratish mumkin:

- a) o‘zlashgan qatlamning umumistemol ma’nolari;
- b) o‘zlashgan qatlamning diplomatiyaga xos ma’nolari.

O‘zbek tiliga turli davrlarda diplomatik munosabatlarning kengayib borishi natijasida ko‘plab terminlar o‘zlashtirilgan bo‘lib, ularning ayrimlari o‘z semantik mundarijasida jamiyatning bir necha sohalariga aloqador tushunchalarni ifodalab kelsa, ayrimlari faqat diplomatiya tushunchalaridan birini anglatuvchi yoki shu sohadagina qo‘llanuvchi leksik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Qayd etish joizki, aynan diplomatiyada o‘zbek tiliga o‘zlashgan leksik birliklar salmoqli qismni tashkil etadi. Ularning aksariyati birdan ortiq ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tiliga o‘zlashgan *deklaratsiya* terminining semantik tarkibida 4 ta ma’no mujassamlashgan. Shundan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 4 ta ma’no qayd qilinadi: “DEKLARATSIYA [*lot.* declaratio – ma’lum qilish, bildirish, e’lon qilish] 1 Xalqaro huquqda va siyosat sohasida tomonlar (bir necha hukumatlar, siyosiy partiyalar, xalqaro tashkilotlar va sh.k.) tarafidan ma’qullangan dasturiy hujjat, muhim xalqaro voqea, qonun va b. yuzasidan umum e’tiboriga yetkaziladigan bayonot; asosiy umumsiyosiy tamoyillarni tantanali e’lon qilish. *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik deklaratsiyasi.* 2 Soliqqa tortiladigan fuqaroning muayyan davrda olgan daromadlari turi va miqdori haqidagi ma’lumotnomasi. 3 Pochta orqali xorijga yuboriladigan pul va qimmatbaho buyumlarga ularning qiymati va xilxususiyatini ko‘rsatgan holda qo‘shib jo‘natiladigan pochta hujjati. 4 Chegara orqali olib o‘tilayotgan narsalar, qimmatbaho buyumlar va ularning miqdori haqida bojxonaga taqdim etiladigan ma’lumotnoma”¹.

Yuqoridagi izohlardan anglashiladiki, *deklaratsiya* leksemasining semantik mundarijasida bildirish, e’lon qilish, bayonot, soliq to‘lovchining daromadlar ma’lumotnomasi, pochta hujjati, bojxona ma’lumotnomalaridan biri, huquqiy hujjat va diplomatik bayonot kabi ma’nolar mujassamlashgan. Ushbu ma’nolardan 1-si diplomatiyaga tegishli bo‘lib, diplomatiyada o‘ziga yuklatilgan ma’nolarni ifodalash uchun foydalaniladi. Xususan, diplomatiyada **deklaratsiya** termini “aniq va ochiq bayonot”² sememasini ifodalaydi.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan va o‘z qatlam diplomatiya terminlarini quyidagi guruhlarda aks ettirish mumkin:

1. Umumiste’mol va xos ma’noli o‘z qatlam diplomatiya terminlari.
2. Diplomatik xoslangan o‘z qatlam diplomatiya terminlari.

Ushbu guruhlariga kiruvchi birliklarni, o‘z navbatida, yana uch guruhga ajratib tadqiq etish mumkin:

- a) arab tilidan o‘zlashgan diplomatik terminlar;
- b) fors tilidan o‘zlashgan diplomatik terminlar;

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 592.

²<https://www.vocabulary.com/lists/183677>


d) turkiy diplomatik terminlar.

3. Umumiste'mol va xos ma'noli o'zlashgan qatlam diplomatiya terminlari.

4. Diplomatik xoslangan o'zlashgan qatlam terminlari.

Uchinchi va to'rtinchi guruhlarga kiruvchi birliklarni o'zlashish lingvistik xaritasiga ko'ra ichki bo'linish asosida quyidagicha tasniflash mumkin: rus tilidan o'zlashgan terminlar; rus tili orqali boshqa (lotin, yunon, fransuz, ingliz) tillardan o'zlashgan terminlar. Quyidagi diagrammada diplomatik terminlarning tarkibi ko'rsatilgan.

1-diagramma



Tadqiqot mohiyatiga ko'ra diplomatik til birliklari, diplomatik terminlarning mazmun-mundariyasi, semantik maydoni, qo'llanish mohiyatini e'tiborga olgan holda o'zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifini quyidagicha aks ettirish joiz deb topildi:

1. Diplomatik harakatlarni ifodalovchi terminlar (*diplomatiya, diplomatik, muzokara, vakolatlar*).

2. Diplomatik qonunlar amaliyoti va hujjat yuritishga oid terminlar (*diplomatik huquq, ilova, ishonchnoma, deklaratsiya, konvensiya, rioya qilmoq, protokol, qaror, bargon*).

3. Diplomatik hamkorlikni ifodalovchi terminlar (*kelishuv, hamkorlik, ittifoq, sulh, pakt*).

4. Diplomatiyada do'stlik yoki dushmanlikni ifodalovchi terminlar (*ittifoqchi, dushman, xiyonat, ziddiyat, fitna*).

5. Diplomatik kasbiy terminlar (*maslahatchi, elchi, attashe, elchi muovini, favqulodda va muxtor elchi*).

6. Diplomatik ishlar yuritiluvchi joy nomlari, uchrashuv, tadbirlarni ifodalovchi terminlar (*agentlik, arbitraj, konsullik, elchixonona, bosh konsullik, ligasi*).

7. Diplomatiyada tijoriy ish yurituvlarga oid terminlar (*boykot, vositachi, mijoz, embargo, tijorat, pul o'tkazmasi, erkin savdo, tarif, talab, tashqi savdo, tranzit, xalqaro tranzit*).

8. Diplomatiyada quruqlik va suvli hududlar, ularga bog'liq hodisalar, obyektlarni ifodalovchi terminlar (*dengizga chiqish, kanal, flagkema, oqim, dengiz vaqti, ochiq dengiz, xalqaro dengiz huquqi*).

9. Inson hulq-atvori, qiyofasi, harakati va ularga bog'liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar (*xushmuomalalik, imo-ishora, odob, axloq, sardonik, diplomatik etiket*).

10. Ramziy ifodalarni bildiruvchi terminlar (*cho'loq o'rdak, lab xizmati, maysazor urushi*).

11. Norozilikni ifodalovchi terminlar (*norozilik notasi, qoralash, tortishuv, dissident, ta'limot, haqorat, qo'zg'olon, shoshilinchlik*).

12. Jarayonlarni ifodalovchi terminlar (*missiya, skrining, manuver, operatsiya, taktika, josuslik*).

13. Shaxs(lar)ni ifodalovchi atamalar (*diplomat, agent, delegatsiya, persona non grata, vakolatli diplomat*).

14. Aloqalarni tartibga solish va tashqi siyosatda qo'llanuvchi terminlar (*tashqi ishlar, tashqi yordam, tashqi siyosat, tashabbus*).

15. Davlat tuzumlari va ularga bog'liq harakatlarni ifodalovchi terminlar (*avtoritar tuzum, avtonom, suverenitet*).

16. Hududiy chegaralarni ifodalovchi terminlar (*chegara, ichki hudud, yaxlitlik, hudud, geosiyosat*).

Dissertatsiyaning “**O‘zbek tili diplomatik terminlarining strukturasi, leksikografik talqini va ularni tartibga solish**” deb nomlangan uchinchi bobida o‘zbek tili diplomatik terminlarining tuzulishi, lug‘atlarda berilishi, ularni tartibga solishga oid takliflar bayon etilgan.

O‘zbek tili diplomatik terminlari tuzulish jihatdan turfa bo‘lib, ularning o‘ziga xos jihatlarni farqlash lozim. O‘zbek tili diplomatik terminlarini tuzilishiga ko‘ra quyidagicha guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

1) sodda terminlar; 2) qo‘shma terminlar; 3) gibrid terminlar; 4) juft terminlar; 5) birikmali terminlar; 6) qisqartma terminlar.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qo‘llangan diplomatiya terminlarini ushbu sohaga ixtisoslashganlik darajasiga ko‘ra quyidagicha tasniflash o‘rinli:


a) xos diplomatik terminlar;

b) asosan diplomatiyada, qisman, boshqa sohalarda qo‘llanuvchi terminlar;

d) ham diplomatiyada, ham boshqa sohalarda baravar qo‘llanuvchi terminlar;

e) asosan boshqa sohalarda, qisman diplomatiyada qo‘llanuvchi terminlar.

2-diagramma



“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da tadqiqotimiz obyekti hisoblangan diplomatiya terminlaridan quyidagilar keltirilgan: *holat, ilova, dushman, xiyonat, ziddiyat, fitna, haqorat, nazorat, vakil, qochoq, tashabbus, hushyor, chegara, tartib, hudud, ittifoq, sulh, elchi, bitim, deklaratsiya, konvensiya, memorandum, sammit, razvedka, agent, immigrant, nota, diplomat, manuver, konsul, viza, vakillik, kelishuv, hamkorlik, vositachilik, sheriklik, bo‘ysunmaslik, maslahatchi, yetakchilik, muvofiqlik, bosqinchilik, ittifoqchi, agentlik, josuslik, fuqarolik, konsullik.*

Qayd etish joizki, ularning aksarlariga diplomatiya sohasiga tegishlilikni bildiruvchi maxsus belgi qo‘yilmagan. Chunki ushbu birliklar umumiste‘molda ham keng qo‘llanadi. Odatda izohli lug‘atlarda umumleksik birlik keltirilgan ekan, unga ma‘lum bir sohaga tegishlilik belgisi qo‘yiladi. Shu jihatdan kelib chiqib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da diplomatiyaga xos terminlarga diplomatiya terminologik sohasiga mansublikni bildiruvchi leksikografik belgi (pometa) qo‘yilgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da denotat tavsiflanar ekan, uning vazifasi, jamiyatdagi ko‘rinishlari semasi berilgan. Ayrim terminlarda vazifani ifodalovchi semasi berilib, uning jamiyatdagi ko‘rinishlari tushirib qoldiriladi. Shu bilan bir qatorda, ayrim leksemalarning diplomatik ifodalari ham to‘liq ochib berilmagan. Ya‘ni xalqaro munosabatlardagi ahamiyati katta bo‘lgan ma‘nolari yetarlicha ochib berilmagan. Lug‘atdan diplomatiyaga oid terminlarni ajratish jarayonida shunga guvoh bo‘ldikki, diplomatiyaga oid leksik birliklar keltirilgan, ammo ularning diplomatiyaga xos ma‘nolari qayd qilinmagan. Bu holatni lug‘atning yaratilgan davri bilan bog‘liq deb hisobladik. Lug‘atda tavsiflangan ayrim misollar bilan fikrimizni davom ettirsak:

“Maslahatchi 1 Maslahat beruvchi. 2 Biror idorada, muassasada yoki biror lavozimli shaxs huzurida maslahat berish vazifasida ishlovchi xodim. *Elchixonona maslahatchisi. Harbiy maslahatchi. Xalq maslahatchisi huq. Xalq sudlarida ko‘riladigan ishlarda qatnashish uchun saylangan jamoat vakili*”¹. Izohli lug‘atda qayd etilgan leksemaning asosan 2 ta ma‘nosi farqlangan bo‘lib, tavsifdan diplomatiyada ushbu tushuncha lavozimni ifodalab kelishi anglashiladi. Shu bilan bir qatorda, izohdan kelib chiqib quyidagi ma‘nolarni farqlash mumkin:

1 maslahat beruvchi. 2 diplomatik lavozim. 3 turli sohalarida maslahat berish vazifasida ishlovchi xodim. 4 maslahatchilik ko‘rinishlari: Elchixonona maslahatchisi. Davlat maslahatchisi. Xalq maslahatchisi huq. Xalq sudlarida ko‘riladigan ishlarda qatnashish uchun saylangan jamoat vakili. 5 maslahatchi vakil. Aytish mumkinki, *maslahatchi* termini bilan parallel ravishda *konsultant* termini ham diplomatiyada faol qo‘llanadi, ular vazifa jihatdan bir xil maqomga ega, ammo *konsultant* terminida xoslanganlik semasi yuqori. Qayd etish joizki, *konsultant* termini bugungi kunga kelib, ma‘lum bir jabhada yo‘l ko‘rsatuvchi, rahbarlik qiluvchi shaxsga nisbatan ham qo‘llanmoqda. Shu nuqtayi nazardan yuqoridagi *maslahatchi* semantik tarkibida 6-ma‘no ma‘lum bir jabhada yo‘l ko‘rsatuvchi, rahbarlik qiluvchi shaxs sememasini ham aks ettirish maqsadga muvofiq. Ilmiy maslahatchi. Ushbu semema diplomatiya Oliy o‘quv yurtlarida konsullik xizmatlari bo‘yicha ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchilarga nisbatan qo‘llanishi ma‘lum. Umuman, ilmiy faoliyatda ham ushbu termin faol qo‘llanmoqda.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilgan *vakil* terminining izohiga e‘tibor qaratsak:

“VAKIL [a. – ishonchli, vakolatli shaxs] 1 Biror kishi, muassasa, tashkilot va sh.k. nomidan ish ko‘rishga vakolati bo‘lgan, uning manfaatlarini ko‘zlovchi va himoya qiluvchi shaxs.

Vakil ota musulmonlarning nikoh marosimlarida kelin tomonidan tayinlanadigan vakil shaxs (nikoh o‘qish, kuyov tomonning kelinga beriladigan mol-mulki va sh.k.larni kelishishda qatnashadi).

2 Biror davlat yoki tashkilotning vakolati bilan o‘zga ellarda uning nomidan ish ko‘ruvchi, uning manfaatlarini himoya qiluvchi lavozimli kishi, elchi. *Diplomatik vakil. Muxtor vakil.*

3 Biror soha, ijtimoiy guruh, jamiyat va sh. k. ga mansub kishi; namoyanda”².

